BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Buvayda tumani 1-son kasb hunar maktabi ingliz tili
o‘qituvchisi Imomova Sarvinozxon Burhonjon qizi
E-mail: sarvinozxonimomova@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0008-7871-6515

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishning pedagogik asoslari va samarali metodlari tahlil qilinadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish, ularning so‘z boyligini kengaytirish hamda fikrni aniq va ravon ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Maqolada suhbat, hikoya tuzish, savol-javob, rolli o‘yinlar, matn asosida ishlash kabi metodlarning o‘quvchilar nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish yo‘llari ham bayon etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, nutqni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati, muloqot madaniyati hamda mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, nutq rivoji, pedagogik metodlar, og‘zaki nutq, yozma nutq, o‘quvchi faoliyati.

Kasbiy tadqiqotlar va Metadologiya

Boshlang‘ich ta’lim – umumiy o‘rta ta’limning dastlabki bosqichi. O‘zbekiston Respublikasida Boshlang‘ich ta’lim 1—4-sinflarda bolalarga ilk ta’lim berish, ularni

ma’naviy kamol toptirishning boshlanish davri hisoblanadi. U 1—4-sinflarni o‘z ichiga oladi va o‘qish 6—7 yoshdan boshlanadi. Bunda ta’lim mazmunini belgilash muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonunida Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga karatilgan. Boshlang‘ich ta’lim sinflari uchun o‘quv rejasi va dasturlari mavjud. Boshlang‘ich ta’limda o‘quv rejasi asosida ona tili, matematika, tibbiyot, tarix (tarixiy mavzulardagi matnlar asosida), rus tili, tasviriy san’at, jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Ona tili darsida xatsavod o‘rgatiladi, nutqni o‘stirish, o‘qish va yozishga o‘rgatish yuzasidan maxsus mashg‘ulotlar o‘tkaziladi, dastur asosida imlo qoidalari va ba’zi grammatik vositalar to‘g‘risida dastlabki ma’lumotlar beriladi. Matematika darsida 4 arifmetik amal ichida hisoblash (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish) o‘rgatiladi, algebra va geometriyaga oid ilk tushunchalar bilan tanishtiriladi. Boshlang‘ich ta’limda maktab dasturida belgilangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘rgatish hamda hosil qilishga erishish uchun ta’limning turli usullari, shakllari hamda vositalaridan foydalanish asosida ish olib borish talab qilinadi [1].

Nutq madaniyati, nutq odobi — 1) og‘zaki va yozma adabiy til me’yorlari (talaffuz, urg‘u, qo‘llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me’yorlashtirish (tartibga solish) muammo larini o‘rganuvchi bo‘limi. G‘arb tilshunosligida umumiy ma’noda "til madaniyati" termini ham qo‘llanadi. 1-ma’nodagi "Nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni o‘zlashtirishdagi ikki bos-qichni qamrab oladi: a) nutqning to‘g‘riligi va boshqa nutqiy mahorat. Nutqning to‘g‘riligi muayyan tilda so‘zlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" yoki umum tomonidan qabul qilingan va an’anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Boshlang%CA%BBich_ta%CA%BClim

tarzida idrok etiladigan adabiy me’yorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me’yorlarga amal qilish, balki o‘zaro mavjud bo‘lgan variantlardan mazmunan eng to‘g‘ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng makbuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir (Mas., aka — oka — ako; kelyapti — kevotti — kelopti variantlaridan bi-rining adabiy me’yor sifatida tanlanishi). Yuksak Nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madani-yatini, tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon qiladi.

Nutq madaniyati avvalo,to`g`ri,adabiy til me`yorlariga amal qilgan holda so`zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jumlalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak.

Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qildi". Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo‘lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas boglik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a’zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me’yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san’at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o‘rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me’yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o‘quv va boshqa maxsus lug‘atlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir. XV asrdayoq o‘zbek adabiy tilining Nutq madaniyati va uning o‘ziga xos me’yorlari bo‘lgan.

Alisher Navoiy o‘zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o‘z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo‘shgan bo‘lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o‘sha davr tili va nutq madaniyati ma’lum darajada aks etgan. "Yaxshi so‘z — jon ozig‘i", "Bug‘doy noning bo‘lmasa ham, bug‘doy so‘zing bo‘lsin", "O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so‘zlarning paydo bo‘lishi ham o‘zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e’tibor kuchli bo‘lganidan darak beradi.

O‘tgan asrning 20-yillaridan so‘ng o‘zbek tilining Nutq madaniyati xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til me’yorlariga asoslanadi. Bu me’yorlarni shakllantirish ishiga olimlar (Otajon Hoshim, T. N. Qoriniyoziy, S. Ibrohimov, Olim Usmon va boshqalar), adib-u shoirlar (Qodiriy, Cho‘lpon, Avloniy, Fitrat, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor va boshqalar) munosib hissa qo`shdilar[2].

O’QITUVCHI TUSHUNCHASI VA TARIXI

O‘qituvchi: Muallim – turli yo‘nalishdagi o‘rta umumiy ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis. Oliy maktab o‘qituvchilari „domla“ deb yuritiladi, ular „o‘qituvchiprof.“ tarzida umumlashma nom bilan ham ataladi. Shuningdek, o‘qituvchilarga nisbatan „muallim“ yoki „pedagog“ atamasi ham qo‘llanadi.

O‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta’lim tarbiya tufayligini hayotini davom ettira va rivojlantira oladi. Tamaddunning Ossuriya, Bobil, Misr, Turkiston, Hindiston, Xitoy singari qadimiy o‘choqlarida topilgan tarixiy madaniy obidalar bu o‘lkalarda o‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlarda shakllanganligini ko‘rsatadi. Bu davrlarda eng oqil, tajribali kishilar o‘qituvchilik bilan shug‘ullanishgan va ular boshqalarga qaraganda katta imtiyozlarga ega bo‘lishgan. Yunonistonda faqat ozod kishilargina o‘qituvchilik qilishga haqli hisoblangan.

[2] https://uz.wikipedia.org/wiki/Nutq_madaniyati

Ular mamlakatning turli yoshlarida grammatiatlar, pedanomlar, didaskallar, pedotriblar shaklida nomlanganlar va ko‘pincha o‘z shaxsiy maktablariga ega bo‘lganlar. Boy oilalarda esa, ta’lim-tarbiya ishi bilimli va savodli qullarga topshirilib, ular paydagoglar („pedagog“ so‘zi shundan kelib chiqqan), ya’ni „bola yetaklovchilar“ deb atalgan. Rim imperiyasida o‘qituvchilik imperator nomidan tayinlanadigan davlat amaldori sanalgan. O‘rta asrlarga kelib, G‘arb mamlakatlarida o‘qituvchilik bilan, asosan, cherkov xizmatchilari shug‘ullanishgan. Shaharlarda dunyoviy maktablar tashkil topgach, hunarmandchilik sexlari va savdogarlar gildiyalari tomonidan taklif etilgan yollanma o‘qituvchilar paydo bo‘ldi. Texnika taraqqiy etib, fkazdlar ko‘payishi bilan o‘qituvchilik eng ommaviy kasblardan biriga aylandi. Chunki ma’lum darajada ta’lim ko‘rmagan odam texnika vositalaridan foydalana olmas edi. Buning uchun esa, ko‘plab maktab va o‘qituvchilar kerak bo‘lardi. Ayni vaqtda, XVIII XIX asrlarda boy oilalarda murabbiy, guvernyor singari uy o‘qtuvchilaridan foydalanish keng yoyildi.

Sharq mamlakatlari, jumladan, Turkiston o‘lkasida ham o‘qituvchi eng qadimiy va obro‘li kasb hisoblanib, „ustoz“ deb e’zozlangan. O‘lkaga islom dini kirib kelishi bilan har bir qishloq, shaharlardagi har bir mahallada masjid va deyarli har bir masjid qoshida maktab tashkil etildi. Bu maktablarning o‘qtuvchilari domla deb ataldi. Shuningdek, maktablar alohida shaxslar uyida ham tashkil etilib, ular maktabdor deyilgan. O‘lkamizda qizlarni o‘qitishga ham alohida e’tibor qaratilib, savodli ayollar uylarida otinoyi maktablari tashkil etilgan. Bu maktab o‘qtuvchilari otinoyi yoki otinbibi deb yuritilgan. Ta’lim davlatdan ajratilganligi, bolalarning o‘qishi, asosan, ota-onalarning ishi hisoblangani uchun ham Turkistonda o‘qtuvchilik kasbiga maxsus tayyorlanilmagan. Madrasa ko‘rgan yoki maktabdan so‘ng o‘z ustida ishlagan savodli kishi o‘qtuvchilik bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan.

XIX asrning oxiridan, ya’ni o‘lkada ma’rifatchilik harakati paydo bo‘lishi bilan o‘qtuvchining saviyasiga alohida e’tibor beriladigan bo‘ldi. Turkistonda an’anaviy yo‘sinda

o‘qitadigan o‘qtuvchilar bilan birga Yevropa mamalakatlaridan o‘zlashtirilgan usullarda dars beradigan yangi muallimlar ham faoliyat ko‘rsata boshladi. Bu hol, ayniqsa, jadidchilik harakati avj olgan kezlarda ancha keng yoyildi. O‘qtuvchilar saviyasining oshganligi millat ruhiyatida uyg‘onish bo‘lishiga, taraqqiyotning bir qadar tezlashuviga olib keldi.

O‘qituvchi oldida turgan vazifalar va uning mavqei jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha bo‘lgan. Jamiyat gullab yashnagan davrda unga e’tibor yuksak bo‘ddi yoki o‘qituvchining mavqei ko‘tarilgani uchun jamiyat rivoj topdi. Oktabr to‘ntarishi amalga oshgandan so‘ng va sho‘rolarning o‘z oldiga qo‘ygan ommani yoppasiga savodli qilish vazifasini bajarish uchun Turkistonda ham tizimli ravishda o‘qituvchi tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Chunki butun o‘lka bo‘ylab ochilgan maktablarda ishlaydigan mutaxassislar kerak edi. Shu sababli o‘qituvchilar sho‘ro hokimiyatining dastlabki yillarida urushga olinmaydigan bo‘ldi. Ta’lim tizimi ham mafkuraga bo‘ysundirilgan sho‘ro davrida o‘qituvchilar hukmron siyosatni o‘tkazuvchi kuchga aylantirildi. Ular bevosita ta’limtarbiyaga tegishli bo‘lmagan turli g‘oyaviy-siyosiy hamda tashkiliy ishlarga me’yoridan ortiq jalb etildi. O‘ziga xos bo‘lmagan ishlar bilan shug‘ullanish o‘qituvchilar obro‘sining pasayishiga olib keldi.

Sobiq Ittifoq tarkibidagi boshqa respublikalar singari O‘zbekistonda ham 1936-yil 10 apreldan SSSR MIK va XKS tomonidan shaxsiy o‘qituvchi unvoni (ixtisosligi) joriy etildi. O‘shandan boshlab pedagogika o‘quv yurtini bitirgan va davlat imtihoni topshirgan shaxsga rasmiy tarzda o‘qituvchi ixtisosligi beriladigan bo‘ldi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘qituvchi tayyorlashga alohida e’tibor berila boshlandi. Bu „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonun (1997-yil 29 avgustda qabul qilingan) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o‘z aksini topdi. O‘zbekistonda o‘qituvchilar universitetlar, pedagogika o‘quv yurtlarida tayyorlanadi. O‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyati jarayonida ilmiy bilimlarni egallab, pedagogik qobiliyatini shakllantirib boradi. Mamlakatda o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimi joriy etilgan, har bir o‘qituvchi ga o‘qituvchilar malakasini oshirish intlarida bepul pedagogik va metodik yordam olish

imkoniyati berilgan. Mamlakatda har yili 1-oktabrda „O‘qituvchilar va murabbiylar“ kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanadi. Respublikada „O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi“, „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi“, „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi“ singari faxriy unvonlar mavjud. O‘qituvchilarga maksimal darajada qisqa ish kuni va haq to‘lanadigan eng uzun mehnat ta’tili belgilangan. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun xalq ta’limi va pedagogika gazeta va jur.lari, jumladan, o‘zbek tilida „Ma’rifat“, rus tilida „Uchitelskaya gazeta“ („O‘qituvchilar gazetasi“) gaz.lari, „Xalq ta’limi“, „Boshlang‘ich ta’lim“, „Uzluksiz ta’lim“, „Ta’lim taraqqiyoti“, „Ta’lim va tarbiya“, „Til va adabiyot ta’limi“ jur.lari, pedagogik va metodik adabiyotlar nashr etiladi.

2002-2003-o‘quv yili boshida O‘zbekistondagi kunduzgi umumiy ta’lim maktablarida 461,1 ming o‘qituvchi ishladi. Ulardan 5 kishi (M.Ismatova, M. Madaliyeva, M.Zokirov, V. Pak, A. Mahmudova) O‘zbekiston Qahramonidir (2005).

Shuni aytish kerakki, o‘qituvchi alohida ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat a’zolarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgani uchun ham uning shaxslik sifatlari kasbiy fazilatlaridan muhimroq hisoblanadi. Chunki u jamiyatning buguni va ertangi kuni qiyofasini shakllantiradi. Shuning uchun ham o‘qituvchining professional jihatdangina yetuk bo‘lishi kifoya qilmaydi. Uning ma’naviy olami o‘quvchilarga singdirilishi ko‘zda tutilgan ezgu insoniy sifatlarga to‘yingan bo‘lishi kerak. O‘qituvchilar tayyorlanadigan o‘quv yurtlarida ayni shu jihatga alohida e’tibor qaratiladi.

Hozirgi pedagogika fani o‘qituvchining amaliyotchilik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik, vositachilik, ijrochilik singari vazifalari borligini qayd etadi. Ana shu vazifalarni to‘la uddalaydigan o‘qituvchigina bugungi yosh avlodning barkamol shaxslar sifatida shakllanishiga ta’sir ko‘rsata oladi. Istiqlol davri o‘qituvchilarida ana shunday xususiyatlarni qaror toptirish mamlakat taraqqiyotini ta’minlash omilidir[3].

[3] https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBqituvchi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Nutqni rivojlantirish orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati, so‘z boyligi va muloqot madaniyati shakllanadi. Bu esa ularning dars jarayonida faol ishtirok etishiga hamda o‘z fikrini erkin va ravon ifoda etishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida nutqni rivojlantirish uchun turli pedagogik metodlardan, jumladan suhbat, hikoya tuzish, savol-javob, matn bilan ishlash va rolli o‘yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, ularni mustaqil fikr bildirishga va mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

Shuningdek, nutqni rivojlantirish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda darslarni tashkil etishi zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash esa o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini yanada faollashtiradi.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishga qaratilgan tizimli va maqsadli ishlar ularning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish hamda kelajakda mustaqil va faol shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.**
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent.**
3. **Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent: Respublika**

ta’lim markazi.

4. Qodirova F., Toshpo‘latova N., Qayumova N. Boshlang‘ich pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
5. To‘xtaxodjayeva M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi.
6. Nurmatova M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent.
7. Ziyomuhamedov B. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan.
8. O‘zbekiston ta’lim portali. www.ziyonet.uz
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti. www.edu.uz